5

Bob

MAKTAB ICHKI TARTIBI VA DARSDAN TASHQARI TA’LIM MUHITI

5.1. Mobil aloqa qurilmalaridan foydalanish tartibi

5.2. Uzaytirilgan kun guruhlari faoliyatini tashkil etish

5.3. O‘quvchilarning ijtimoiy faolligi va tashabbuslari qo‘llab-quvvatlash

5.1. MOBIL ALOQA QURILMALARIDAN FOYDALANISH TARTIBI

Umumta’lim tashkilotida mobil aloqa qurilmalaridan foydalanish tartibi faqat intizom masalasi emas, balki dars sifati, o‘quvchi xavfsizligi, shaxsiy hayot daxlsizligi, axborot xavfsizligi va maktab ichki madaniyati bilan bog‘liq tashkiliy-boshqaruv masalasidir. Mobil qurilmalardan maqsadsiz foydalanish dars jarayoniga xalaqit berishi, o‘quvchilarning diqqatini chalg‘itishi, shaxsiy ma’lumotlarning noqonuniy tarqalishi, kiberbulling va boshqa salbiy holatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Normativ asos

Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 21-maydagi 139-son qarori bilan “O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalarida mobil telefonlardan foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi nizom tasdiqlangan. Mazkur nizom barcha umumta’lim muassasalarida mobil telefonlardan foydalanish tartibini belgilaydi.

Mobil aloqa qurilmalaridan foydalanishning asosiy talablari

Amaldagi nizomga muvofiq umumta’lim tashkilotlarida quyidagi talablar qo‘llaniladi:

maktab hududiga kirishda mobil telefon ovozsiz rejimga o‘tkaziladi;

dars va boshqa mashg‘ulotlar boshlanishidan oldin mobil telefon o‘chirilib, portfel yoki sumkaga joylashtiriladi;

dars vaqtida telefon orqali qo‘ng‘iroq qilish, xabar almashish, internetdan foydalanish, o‘yin o‘ynash, musiqa tinglash, foto va video tasvirga olish taqiqlanadi;

zo‘ravonlik, shafqatsizlik, pornografik yoki ta’lim muassasasining obro‘siga putur yetkazuvchi materiallarni tayyorlash, saqlash va tarqatishga yo‘l qo‘yilmaydi;

tanaffus vaqtida mobil telefondan foydalanishga ruxsat etiladi, biroq boshqa shaxslarning roziligisiz ularni suratga olish, videoga yozish yoki shaxsiy hayotiga aralashish taqiqlanadi.

Favqulodda vaziyatlarda, jumladan sog‘liq bilan bog‘liq shoshilinch holatlar yoki boshqa xavfli vaziyatlarda maktab ma’muriyati mobil aloqa qurilmalaridan foydalanishga ruxsat berishi mumkin.

Qo‘llash bo‘yicha izoh

Mobil aloqa qurilmalaridan foydalanish qoidalariga rioya etilishi sinf rahbarlari, navbatchi pedagoglar va direktor o‘rinbosarlari tomonidan muntazam monitoring qilinishi, aniqlangan holatlar bo‘yicha profilaktik suhbatlar o‘tkazilishi tavsiya etiladi.

Direktor uchun boshqaruv choralari

Mobil qurilmalardan foydalanish tartibini maktabda tizimli va samarali boshqarish uchun direktor quyidagi choralarga e’tibor qaratishi maqsadga muvofiq:

– maktabning ichki tartib-qoidalarida mobil telefonlardan foydalanish tartibini aniq belgilash va barcha ishtirokchilarga yetkazish;

– sinf rahbarlari orqali o‘quvchi va ota-onalarga o‘quv yili boshida tushuntirish berish, zarur hollarda yozma tanishtiruv o‘tkazish;

– pedagog xodimlar uchun ham dars vaqtida telefondan foydalanish madaniyatini belgilash, o‘qituvchining dars paytida shaxsiy telefon ishlatishi o‘quvchilar uchun noto‘g‘ri namuna bo‘lishi mumkin;

– telefon orqali foto-video tarqatish, o‘quvchi va xodimlarning shaxsiy ma’lumotlarini oshkor qilish va kiberbulling holatlarining oldini olish bo‘yicha tushuntirish ishlarini tashkil etish;

– qoidabuzarlik yuz berganda pedagog, direktor o‘rinbosari, ota-ona va o‘quvchi ishtirokida qonuniy va tarbiyaviy choralar ko‘rish tartibini ishlab chiqish, bunda o‘quvchining shaxsiy mulki (telefon) musodara qilinmasligi, faqat tartibga solish choralari qo‘llanilishi kerak.

Muhim

Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda o‘quvchining mobil telefonini musodara qilish yoki olib qo‘yish nazarda tutilmagan. Qoidabuzarlik holatlarida tarbiyaviy ta’sir choralarini qo‘llash, ota-onalarni xabardor qilish va maktabning ichki tartib-qoidalariga muvofiq ish yuritish tavsiya etiladi.

Amaliy tavsiya

Maktabda mobil aloqa qurilmalaridan foydalanish qoidalari sinf xonalarida, axborot stendlarida va maktabning rasmiy axborot kanallarida e’lon qilinishi, ota-onalar hamda o‘quvchilarga muntazam tushuntirib borilishi maqsadga muvofiq.

Eslatma

Mobil aloqa qurilmalaridan foydalanish masalasi faqat intizom masalasi sifatida emas, balki raqamli madaniyat, axborot xavfsizligi va mas’uliyatli raqamli xulq-atvorni shakllantirishning muhim elementi sifatida ham qaralishi lozim.

5.2. UZAYTIRILGAN KUN GURUHLARI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

Uzaytirilgan kun guruhi ota-onalar ehtiyoji asosida bolalarning darsdan tashqari vaqtda ta’lim-tarbiyasiga ko‘maklashish, xavfsiz muhitda uy vazifalarini bajarish, dam olish va tarbiyaviy mashg‘ulotlarda qatnashish uchun tashkil etilishi mumkin bo‘lgan tashkiliy-pedagogik xizmatdir.

Bunday guruh oddiy “darsdan tashqari mashg‘ulot” yoki “to‘garak” bilan bir xil mazmunda

talqin qilinmaydi. U alohida tashkiliy tartib, ota-onalar bilan shartnoma, moliyaviy hisob-kitob, pedagogik nazorat hamda xavfsizlik talablarini o‘z ichiga oladigan ta’lim xizmatidir.

Normativ asos

Uzaytirilgan kun guruhlarini tashkil etishning umumiy huquqiy asosi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-son qarori bilan tasdiqlangan “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risida”gi nizomda belgilangan. Mazkur Nizomning 22-bandiga muvofiq, o‘quvchilarning ota-onalari yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarning ehtiyojidan kelib chiqib, bolalarning ta’lim-tarbiyasiga ko‘maklashish maqsadida umumta’lim muassasalarida kuni uzaytirilgan guruhlar tashkil etilishi mumkin.

Bolalar ta’minoti uchun ota-onalar to‘lovini undirish va undan foydalanish tartibi 2016-yil 3-avgustda 2820-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining uzaytirilgan kun guruhlarida bolalar ta’minoti uchun ota-onalar to‘lovini undirish va undan foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi nizom bilan tartibga solinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 10-iyundagi qaroriga asosan buxgalteriya hisobi va to‘lov tartibiga oid yangilanishlar kiritilgan.

Uzaytirilgan kun guruhini tashkil etish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

1. Ota-onalar ehtiyojini aniqlash. Guruh tashkil etish uchun avvalo ota-onalarning real ehtiyoji o‘rganiladi. Agar yetarli miqdorda ota-onalar (masalan, bir sinfda 25 – 30 nafar bola) murojaat qilsa, guruh tashkil etish uchun asos shakllanadi.

2. Ichki hujjatlarni rasmiylashtirish. Guruh tashkil etish bo‘yicha ota-onalarning murojaatlari, sinflar kesimidagi ehtiyoj, mavjud xona, pedagogik xodim, kun tartibi va xavfsizlik sharoitlari o‘rganilgandan so‘ng direktor tomonidan tegishli ichki buyruq rasmiylashtiriladi.

3. Ota-onalar bilan shartnoma tuzish. Har bir ota-ona (yoki qonuniy vakil) bilan alohida shartnoma tuziladi. Shartnomada bolaning ma’lumotlari, guruhda bo‘lish tartibi, to‘lov miqdori, to‘lovni amalga oshirish muddati, tomonlarning huquq va majburiyatlari, bolaning guruhga qatnashi vaqtincha yoki butunlay to‘xtatiladigan holatlar, shuningdek ota-onaning maktab bilan axborot almashish tartibi aniq ko‘rsatiladi.

4. To‘lovni amalga oshirish tartibi. Uzaytirilgan kun guruhlari uchun to‘lov har bir oy uchun bazaviy hisoblash miqdorining 25 foizi miqdorida undiriladi. To‘lov o‘quv yili davomida, ya’ni sentabr oyidan may oyigacha oyma-oy amalga oshiriladi. Amaldagi tartibga ko‘ra, to‘lov umumiy o‘rta ta’lim muassasasining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘iga o‘tkaziladi.

Uzaytirilgan kun guruhlariga qatnaydigan bolalar umumiy sonining 15 foizi doirasida “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi orqali kam ta’minlangan deb e’tirof etilgan yoki

“Kambag‘al oilalar reyestri” axborot moduli orqali kambag‘al deb e’tirof etilgan oilalar farzandlari to‘lovdan ozod qilinadi.

5. Mablag‘lardan foydalanish va hisobdorlik. Uzaytirilgan kun guruhlari uchun ota-onalar to‘lovidan tushgan mablag‘lar umumiy o‘rta ta’lim muassasasining uzaytirilgan kun guruhlari tarbiyachilari mehnatiga haq to‘lash xarajatlariga maqsadli tartibda yo‘naltiriladi. Tarbiyachilarning oylik ish haqi pedagog xodimlar uchun qonunchilik hujjatlarida belgilangan bazaviy tarif stavkalaridan kelib chiqib hisoblanadi. Tarbiyachilarga mehnat ta’tili berish mehnat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi, ta’til muddati esa belgilangan tartibda ishlangan vaqtga mutanosib ravishda hisoblab chiqariladi.

Amaliy tavsiya

Uzaytirilgan kun guruhi faoliyatini tashkil etishda direktor ota-onalar, tarbiyachi va sinf rahbarlari o‘rtasida muntazam axborot almashinuvi yo‘lga qo‘yilganligini ta’minlashi maqsadga muvofiq.

Direktor uchun boshqaruv choralari

uzaytirilgan kun guruhi bo‘yicha mas’ul xodimni belgilash va uning vazifalarini aniq ko‘rsatish;

kundalik davomat yuritilishini nazorat qilish – bolaning maktabda qolish vaqti, ota-onaga topshirilish tartibi va xavfsizlik choralari;

ota-onalar bilan aloqani muntazam yuritish – shartnoma shartlarining bajarilishi, bolaning holati va kun tartibi haqida axborot berish;

kam ta’minlangan oilalar farzandlari uchun imtiyoz berish tartibini qonunchilik asosida rasmiylashtirish – ro‘yxat, arizalar va tegishli axborot tizimlari orqali berilgan ma’lumotnomalar va qonunchilikda belgilangan mezonlarga tayanadi;

to‘lovlar faqat shaxsiy g‘azna hisobvarag‘i orqali yuritilishi, tushum va xarajatlar bo‘yicha hujjatlar to‘liq rasmiylashtirilishi hamda mablag‘lardan foydalanish amaldagi Nizom talablariga mos bo‘lishi shart.

Muhim

Uzaytirilgan kun guruhi ota-onalar murojaati asosida tashkil etiladi. Guruh faoliyati, to‘lovlar va imtiyozlar bo‘yicha barcha hujjatlar amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq rasmiylashtirilishi shart.

Eslatma

Guruh samaradorligi faqat davomat bilan emas, balki o‘quvchilarning xavfsizligi, uy vazifalarining bajarilishi, tarbiyaviy mashg‘ulotlar sifati va ota-onalar qoniqishi orqali ham baholanishi lozim.

Uzaytirilgan kun guruhi maktabda darsdan keyingi vaqtni mazmunli tashkil etish, o‘quvchilarning xavfsizligini ta’minlash, uy vazifalarini bajarishga ko‘maklashish, dam olish va tarbiyaviy mashg‘ulotlarni oqilona uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Bunday guruhlar ota-onalar ehtiyoji asosida tashkil etilsa-da, ularning faoliyati maktabning umumiy ta’lim muhiti, ichki tartibi va pedagogik yondashuvi bilan uzviy bog‘liq bo‘lishi lozim.

Maktabda uzaytirilgan kun guruhlari faoliyatini tahlil qilishda quyidagi savollar ko‘rib chiqiladi:

1. Uzaytirilgan kun guruhi ota-onalar ehtiyoji, o‘quvchilar soni, mavjud xona, mas’ul xodimlar va xavfsizlik sharoitlari inobatga olingan holda tashkil etilganmi?
2. Uzaytirilgan kun guruhi mashg‘ulotlari o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, kun tartibi, dam olish ehtiyoji va darsdan keyingi yuklamasi inobatga olingan holda tashkil etilganmi?
3. Uzaytirilgan kun guruhida o‘quvchilarning xavfsizligi, kelib-ketishi, ota-onalarga topshirilishi va mas’ul xodimlar nazorati bo‘yicha aniq tartib belgilanganmi?
4. Guruh faoliyati o‘quvchi uchun qo‘shimcha yuklama emas, balki darsdan keyingi vaqtni tartibli va foydali tashkil etish vositasi sifatida yo‘lga qo‘yilganmi?
5. Uzaytirilgan kun guruhi bo‘yicha ota-onalar bilan muloqot, to‘lovlar, imtiyozlar, qatnash davomati va yuzaga keladigan masalalarni hal etish tartibi tushunarli belgilanganmi?

1.

2.

3.

4.

5.

5.3. O‘QUVCHILARNING IJTIMOIY FAOLLIGI VA TASHABBUSLARI QO‘LLAB-QUVVATLASH

O‘quvchilarning ijtimoiy faolligi faqat tadbirlarda qatnashish emas, balki tashabbus ko‘rsatish, jamoaviy ishlash, liderlik ko‘nikmalari, volontyorlik, kitobxonlik, sport, san’at, intellektual o‘yinlar, kasbga yo‘naltirish va maktab hayotida mas’uliyatli ishtirok etish kabi keng yo‘nalishlarni qamrab oladi. Direktor uchun bu yo‘nalish o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, tarbiyaviy muhitni boyitish va maktab ichki madaniyatini mustahkamlash imkoniyatidir.

Normativ asos

O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni yoshlar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy faolligi, ma’naviy, intellektual va jismoniy rivojlanishini ta’minlash bo‘yicha davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilaydi.

Qonunga muvofiq, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning jamiyat hayotida faol ishtirokini ta’minlash va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

Normativ asos

Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da yoshlarning ijtimoiy faolligi, AKT sohasidagi bilimlarini oshirish, yoshlar infratuzilmasini kengaytirish va “5 muhim tashabbus” doirasida amaliy faoliyat yo‘nalishlari belgilangan.

Besh muhim tashabbus – yoshlarni ma’naviy-ma’rifiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, kitobxonlikni rivojlantirish, sport va jismoniy tarbiyani ommalashtirish, aholi bandligi va tadbirkorlikni rag‘batlantirish, san’at va madaniyat yo‘nalishlarini qo‘llab-quvvatlash maktablarda o‘quvchilar faolligi uchun amaliy yo‘nalishlar vazifasini bajaradi.

Normativ asos

“Yangi O‘zbekiston yoshlari – 2030” strategiyasida sifatli ta’lim, yoshlar tashabbuslari, volontyorlik, faollik va kasbga yo‘naltirish bo‘yicha uzoq muddatli vazifalar belgilangan.

“2022 – 2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonda o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, kasbga yo‘naltirish va tarbiyaviy ishlar vazifalari belgilangan.

Maktabda o‘quvchilar faolligini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari

Maktab sharoitida o‘quvchilar faolligi quyidagi asosiy yo‘nalishlarda qo‘llab-quvvatlanadi:

To‘garak va qiziqish mashg‘ulotlari – o‘quvchilarning individual qiziqishlari va qobiliyatlariga mos ravishda o‘quv yili boshida to‘garaklar tashkil etiladi. To‘garaklar yo‘nalishi maktabning imkoniyati, pedagog kadrlar tarkibi va o‘quvchilar ehtiyojiga qarab belgilanadi. **“Barkamol avlod”** bolalar maktablari to‘garak faoliyatining normativ asosini tashkil etadi.

Sport, san’at, musiqa va kitobxonlik – jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, badiiy qobiliyatlarni rivojlantirish, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish maktab tarbiyaviy ishlarining ajralmas qismi sifatida tashkil etiladi. **“5 muhim tashabbus”** doirasidagi yo‘nalishlar bu faoliyat uchun normativ-strategik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Intellektual o‘yinlar va fan olimpiadalari – “Zakovat” o‘yinlari, fan olimpiadalari, viktorina va bilimlar bellashuvi o‘quvchilarning intellektual faolligini oshirish, jamoaviy fikrlash va sog‘lom raqobat muhitini yaratishga xizmat qiladi.

Volontyorlik va ijtimoiy loyihalar – o‘quvchilar mahalliy jamoatchilik ehtiyojlariga javob beruvchi kichik loyihalar, jumladan ekologik aksiyalar, faxriylar bilan uchrashuv, kutubxonani boyitish, maktab hududini obodonlashtirish kabi tadbirlarni tashkil etishi va ularda qatnashishi mumkin. **“Yangi O‘zbekiston yoshlari – 2030”** strategiyasida volontyorlik va ijtimoiy faollik alohida yo‘nalish sifatida belgilangan.

Kasbga yo‘naltirish tadbirlari – yuqori sinf o‘quvchilari uchun kasb-hunarni tanlashga ko‘maklashadigan uchrashuvlar, ekskursiyalar, kasbiy testlar va maslahatlar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-134-sonli Farmonida kasbga yo‘naltirish alohida vazifa sifatida belgilangan.



O‘quvchilar takliflari va tashabbuslarini tinglash – o‘quvchilarning maktab hayotiga oid fikrlari va takliflarini yig‘ish va ko‘rib chiqish mexanizmi. Bu maxsus “takliflar qutisi”, sinf soatlari, o‘quvchilar kengashi yoki tarbiyaviy tadbirlar doirasida tashkil etilishi mumkin. Agar maktabda “o‘quvchilar parlamenti” faoliyat yuritayotgan bo‘lsa, u tarbiyaviy ish shakli sifatida o‘quvchilar ovozini yetkazish va tashabbuslarni umumlashtirish vazifasini bajaradi.

Qo‘llash bo‘yicha izoh

“O‘quvchilar parlamenti” barcha maktablarda majburiy tuzilma sifatida belgilangan bo‘lsa, tegishli normativ asos ko‘rsatiladi. Ochiq manbalarda bu bo‘yicha umumiy majburiy talabni to‘liq tasdiqlovchi normativ hujjat aniqlanmagan. Shu sababli o‘quvchilar parlamenti maktab ichki tashabbusi yoki tarbiyaviy ish shakli sifatida ko‘rib chiqiladi.

Tashabbuskor o‘quvchilarni rag‘batlantirish – ijtimoiy loyihalar, fan olimpiadalari, tanlovlar, volontyorlik va boshqa yo‘nalishlarda faol ishtirok etgan o‘quvchilarni maktab darajasida rag‘batlantirish mexanizmini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Rag‘batlantirish shakllari: faxriy yorliq, ota-onalarga minnatdorlik xati, maktab yig‘ilishida e’tirof etish, maktab gazetasi yoki axborot stendida ko‘rsatish.

Direktor uchun boshqaruv choralari

– o‘quvchilarning qiziqish va ehtiyojlarini o‘quv yili boshida o‘rganish va to‘garaklar, sport seksiyalari, intellektual tadbirlar jadvalini shakllantirish;

– maktabda ijtimoiy faollik va tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash rejasini tarbiyaviy ishlar rejasi doirasida ishlab chiqish;

– tashabbuskor o‘quvchilarni rag‘batlantirish mexanizmini belgilash va rasmiylashtirish;

– tadbirlar xavfsizligi va tarbiyaviy mazmunini oldindan ko‘rib chiqish va nazorat qilish;

– o‘quvchi tashabbuslarini maktabning yillik ish rejasi bilan bog‘lash, bunda rejasiz, tartibsiz tadbirlar o‘rniga tizimli yondashuvni amalga oshirish;

– sinf rahbarlari, psixolog, ma’naviy-ma’rifiy ishlar o‘rinbosari, yoshlar yetakchisi va ota-onalar hamkorligini yo‘lga qo‘yish;

– ota-onalar, mahalla va hamkor tashkilotlar (Barkamol avlod maktablari, sport klublari, kutubxonalar) bilan aloqalarni mustahkamlash.

Eslatma

O‘quvchilar faolligini qo‘llab-quvvatlashda asosiy maqsad – har bir o‘quvchiga o‘z qobiliyatlarini namoyon etish imkoniyatini berish. Bu faqat faol va tashabbuskor o‘quvchilar uchun emas, barcha o‘quvchilar uchun ochiq va qulay muhit yaratishni nazarda tutadi.

Shu bois o‘quvchilar faolligini tashkil etishda faqat tanlov, bayram yoki ommaviy tadbirlar bilan cheklanib qolmaslik kerak. Har bir o‘quvchining qiziqishi, qobiliyati va ehtiyojidan kelib chiqib, sport, san’at, kitobxonlik, texnologiya, ekologiya, volontyorlik, liderlik va intellektual yo‘nalishlarda ishtirok etish imkoniyatlari yaratiladi. Tashabbuslar sinf rahbarlari, psixolog, yoshlar yetakchisi, ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha mas’ullar va ota-onalar hamkorligida qo‘llab-quvvatlanadi. Direktor bu jarayonda tashabbuslarning tarbiyaviy mazmuni, xavfsizligi, tizimliligi va maktabning yillik ish rejasi bilan uyg‘unligini nazorat qiladi. Faol o‘quvchilarni rag‘batlantirish bilan birga, kamroq ko‘zga tashlanadigan, tortinchoq yoki alohida qo‘llab-quvvatlashga muhtoj o‘quvchilarni ham jarayonga jalb etish muhimdir. Buning uchun kichik guruhli loyihalar, sinf ichidagi mas’uliyatlar, ijtimoiy tashabbuslar va ijodiy topshiriqlardan foydalanish mumkin. O‘quvchilar tashabbuslari maktabda ijobiy muhit, o‘zaro hurmat, jamoaviylik va mas’uliyat hissini shakllantirishga xizmat qilishi lozim.

O‘quvchilar faolligini qo‘llab-quvvatlash jarayoni maktabda tizimli ravishda rejalashtirilishi va tarbiyaviy ishlar mazmuni bilan uzviy bog‘lanishi lozim. Bunda “5 muhim tashabbus”, “Barkamol avlod” bolalar maktablari faoliyati, sport seksiyalari, kitobxonlik tadbirlari, intellektual o‘yinlar, volontyorlik loyihalari hamda kasbga yo‘naltirish ishlari o‘quvchilarni faol hayotiy pozitsiyaga yo‘naltiruvchi asosiy vositalar sifatida qaraladi.

Direktor ushbu yo‘nalishda o‘quvchilarning qiziqishi va imkoniyatlarini aniqlash, ularni tegishli to‘garak, loyiha yoki tashabbuslarga jalb etish bo‘yicha sinf rahbarlari, psixolog, yoshlar yetakchisi va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha mas’ullar faoliyatini muvofiqlashtirishi lozim. Ayniqsa, kam faol, tortinchoq yoki o‘z qobiliyatini namoyon etishga qiynalayotgan o‘quvchilar bilan individual yondashuv asosida ishlash tizimi yo‘lga qo‘yilishi muhim

O‘quvchilarning ijtimoiy faolligi va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash maktabda ochiq, ishonchli va faol ta’lim muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Bunda o‘quvchilar tomonidan ilgari suriladigan takliflar, loyihalar va tashabbuslar maktabning ichki tartibi, xavfsizlik talablari, yosh xususiyatlari hamda ta’limiy maqsadlar bilan uyg‘un holda ko‘rib chiqiladi.

Maktabda o‘quvchilar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash holatini tahlil qilishda quyidagi savollar ko‘rib chiqiladi:

1. O‘quvchilar o‘z taklif va tashabbuslarini bildirish, muhokama qilish hamda amalga oshirishda qanday ishtirok shakllaridan foydalanadi?
2. Qo‘llab-quvvatlanayotgan tashabbuslar maktab ta’lim muhitidagi qaysi ehtiyoj, muammo yoki rivojlantirish imkoniyatiga javob beradi?
3. Tashabbuslarni amalga oshirishda turli sinf, yosh va qiziqishdagi o‘quvchilarni qamrab olish hamda faoliyatning faqat ayrim o‘quvchilar bilan cheklanib qolmasligini ta’minlash uchun qanday tartib qo‘llanadi?
4. O‘quvchilar tashabbuslarini amalga oshirishda pedagog xodimlarning yo‘naltiruvchi, maslahat beruvchi va xavfsizlikni ta’minlovchi roli qanday belgilanadi?
5. Taklif etilayotgan loyiha va tadbirlar maktab ichki tartibi, xavfsizlik talablari, odob-axloq qoidalari hamda shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilish talablariga muvofiqligi qanday baholanadi?
6. Amalga oshirilgan tashabbuslar o‘quvchilarda mas’uliyat, hamkorlik, muloqot madaniyati va maktab hayotiga daxldorlik hissini rivojlantirishga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

1. 2.

3. 4.

5. 6.